

YANGI O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Anvarova Zarrina Saidovna

*BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası
o‘qituvchisi*

z.s.anvarova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda sug‘urta bozorini raqamlashtirishning dolzarbligi, sohadagi mavjud islohotlar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi tahlil qilinadi. Xususan, xorijiy mamlakatlar — AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarning sug‘urta bozorini tartibga solishdagi ilg‘or tajribalari o‘rganiladi. Raqamlashtirish jarayonining samaradorlikka ta’siri, innovatsion texnologiyalar asosida shakllanayotgan sug‘urta xizmatlari, InsurTech startaplarining roli yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda raqamli sug‘urta tizimini rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *sug‘urta bozori, raqamlashtirish, xorijiy tajriba, InsurTech startaplari, raqamli xizmatlar, innovatsion texnologiyalar, sug‘urta siyosatini tartibga solish, elektron sug‘urta tizimi.*

ЦИФРОВИЗАЦИЯ И РЕГУЛИРОВАНИЕ СТРАХОВОГО РЫНКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Анварова Заррина Саидовна

*БухГУ Факультет экономики и туризма преподаватель кафедры
“Бухгалтерского учета и статистики”*

z.s.anvarova@buxdu.uz

Аннотация: В статье рассматривается актуальность цифровизации страхового рынка в Новом Узбекистане, проводимые реформы и внедрение цифровых технологий в данной сфере. Особое внимание уделено анализу зарубежного опыта регулирования страховой отрасли, включая США, Великобританию, Германию, Японию и другие развитые страны. Раскрывается влияние цифровизации на эффективность страхования, роль инновационных InsurTech-стартапов и развитие онлайн-услуг. В заключение даны рекомендации по совершенствованию цифровой страховой системы в Узбекистане.

Ключевые слова: страховой рынок, цифровизация, зарубежный опыт, InsurTech-стартапы, цифровые услуги, инновационные технологии, государственное регулирование страхования, электронные страховые системы.

DIGITALIZATION AND REGULATION OF THE INSURANCE MARKET IN NEW UZBEKISTAN: INTERNATIONAL EXPERIENCE

Anvarova Zarrina Saidovna

*Teacher of the Department of “Accounting and Statistics” of the Faculty of
Economics and Tourism of BukSU*

z.s.anvarova@buxdu.uz

Abstract: This article explores the relevance of digitalizing the insurance market in New Uzbekistan, analyzing recent reforms and the implementation of digital technologies in the sector. The study examines the regulatory experiences of developed countries such as the USA, the UK, Germany, and Japan. It highlights the impact of digitalization on insurance efficiency, the emergence of innovative services, and the growing role of InsurTech startups. The paper also presents recommendations for enhancing the digital insurance system in Uzbekistan.

Keywords: insurance market, digitalization, international experience, InsurTech startups, digital services, innovative technologies, insurance regulation, electronic insurance systems.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar doirasida moliyaviy bozorlar, xususan, sug‘urta sohasi ham jadal rivojlanish bosqichiga kirib bormoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida aholi farovonligini ta‘minlash, moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash va investitsion muhitni barqarorlashtirishda sug‘urta xizmatlarining tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu xizmatlarni raqamlashtirish va ularni zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan.

Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari fonida sug‘urta bozori ishtirokchilari – kompaniyalar, foydalanuvchilar, tartibga soluvchi organlar – o‘zaro aloqalarni yangicha shaklda olib borishni talab qilmoqda. Endilikda sug‘urta faqat an‘anaviy shartnomalar, qog‘ozli polislar bilan cheklanib qolmay, balki sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar (big data), blokcheyn texnologiyasi, masofaviy verifikatsiya va mobil ilovalar asosida xizmat ko‘rsatishni talab qilmoqda [1].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi”, degan fikri — raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlik, xizmatlar qulayligi va ochiqlik nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi [2]. Shu nuqtai nazardan, sug‘urta tizimini zamon talablari asosida raqamlashtirish nafaqat soha ishtirokchilari uchun, balki umuman milliy iqtisodiyot uchun muhim ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda sug‘urta bozori axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘langan [3]. Masalan, AQShda Insur Tech kompaniyalari hayotni va mulkni sug‘urtalashda algoritmik tahlil va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlarini qo‘llaydi. Buyuk Britaniyada esa “open insurance” kontseptsiyasi asosida sug‘urta kompaniyalari ma’lumotlarni integratsiyalashgan holda raqamli xizmatlar taklif qilmoqda [4]. Bu kabi yondashuvlar, O‘zbekistonda ham raqamli sug‘urta infratuzilmasini yaratishda muhim tajriba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur tadqiqotda Yangi O‘zbekistonda sug‘urta bozorini raqamlashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlar, xorijiy ilg‘or tajribalar asosida bu borada qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, milliy sug‘urta tizimini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shu orqali raqamli texnologiyalar asosida samarali va shaffof sug‘urta tizimini barpo etish yo‘llarini aniqlash maqsad qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va tartibga solish masalalari so‘nggi yillarda nafaqat O‘zbekistonda, balki global miqyosda ham ilmiy izlanishlar markazida turibdi. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta tizimining raqamli transformatsiyasi nafaqat texnologik jarayon, balki institutsional, huquqiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni ham qamrab oluvchi murakkab tizim sifatida qaralmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda, xususan, InsurTech (Insurance + Technology) kontseptsiyasi doirasida yozilgan ilmiy maqolalarda sug‘urtada raqamli platformalar, sun‘iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), blokcheyn va mobil ilovalar asosida xizmat ko‘rsatishning afzalliklari va xavf-xatarlariga keng e’tibor qaratilgan [5]. “Willis Towers Watson”, “Deloitte”, “PwC”, “McKinsey” kabi xalqaro konsalting kompaniyalari hisobotlarida raqamlashtirish sug‘urta kompaniyalari uchun rentabellikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, foydalanuvchi tajribasini yaxshilashda asosiy omil sifatida e’tirof etilgan. Mahalliy ilmiy manbalarda esa, M. Sharapova, F. Ubaydullaev, Z. Umrzoqov singari iqtisodchi olimlar tomonidan O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va raqamli xizmatlar salohiyati haqida tahliliy fikrlar ilgari surilgan [6]. Shu bilan birga, “Kafolat”, “O‘zbekinvest”, “Gross Insurance”, “Universal Sug‘urta” kabi kompaniyalar tajribasi

asosida O'zbekistonda sug'urta xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish bo'yicha dastlabki qadamlar, shart-sharoitlar va raqamli yechimlar o'rganilgan [7].

Xorij tajribasi tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Masalan:

- AQShda sug'urta sohasi alohida shtatlar darajasida tartibga solinadi va raqamli xizmatlarga eng ko'p investitsiya jalb qilingan davlat sifatida ajralib turadi;

- Buyuk Britaniyada moliya sektori raqamlashtirish bo'yicha maxsus strategiyalar asosida rivojlantirilib, sug'urta kompaniyalari uchun axborot almashinuv tizimlari yaratilgan;

- Yaponiyada moliya vazirligi huzurida faoliyat yurituvchi sug'urta departamenti orqali bozor qat'iy tartibga solinadi;

- Fransiyada uzoq vaqt mustaqil sug'urta nazorati bo'lmagan, biroq iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibida faoliyat yurituvchi departamentlar bu vazifani bajargan [8].

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada ilmiy-tahliliy metodologiya sifatida quyidagi yondashuvlardan foydalanildi:

1. Tizimli tahlil – sug'urta bozorining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlab chiqildi.

2. Komparativ (taqqoslov) metod – O'zbekiston tajribasi xorijiy davlatlar bilan qiyoslab tahlil qilindi.

3. Deskriptiv va statistik tahlil – sug'urta kompaniyalari faoliyatiga oid ochiq manbalar asosida raqamli xizmatlar salohiyati baholandi.

4. Normativ-huquqiy tahlil – O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalar va sug'urta sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari o'rganildi.

5. Empirik yondashuv – ayrim sug'urta kompaniyalari saytlarida berilgan real xizmatlar, veb-funksiyalar va mobil ilovalar misolida amaliy ko'rinishlar tahlil qilindi.

Mazkur metodologik asoslar, mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tahlil qilish, shuningdek, O'zbekistonda raqamli sug'urta tizimini takomillashtirish bo'yicha asosli xulosalar chiqarish imkonini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sug'urta bozorining zamonaviy raqamli infratuzilmasini shakllantirish – nafaqat texnologik yangilanish, balki tizimning ishonchliligi, shaffofligi va foydalanuvchi uchun qulayligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishdir. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalar va tahliliy xulosalar aniqlandi:

1. O'zbekistonda raqamli sug'urta xizmatlarining joriy etilishi bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot va fintech xizmatlariga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda, sug'urta sohasi ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Jumladan:

- “Kafolat” sug‘urta kompaniyasi tomonidan onlayn sug‘urta polislarini rasmiylashtirish, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish tizimi joriy etilgan;

- “O‘zbekinvest” kompaniyasi esa “insurance.uz” loyihasi orqali mijozlarga turli sug‘urta mahsulotlarini masofadan turib taqdim etmoqda;

- Zararni onlayn baholash va arizalarni masofadan qabul qilish tizimlari joriy qilinmoqda, bu esa ish yuritish tezligini oshirmoqda.

2. Xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston uchun mos model ishlab chiqilishi zarur.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish nafaqat xizmatlar shaklini o‘zgartiradi, balki:

- Sug‘urta kompaniyalari faoliyatini optimallashtiradi;

- Sun‘iy intellekt asosida xavflarni avtomatik baholash imkonini beradi;

- P2P sug‘urtalash, mikro-sug‘urta, dinamik tariflar kabi yangi xizmat turlarini shakllantiradi.

Masalan:

- AQSh – InsurTech startaplariga 10 mlrd. dollardan ortiq investitsiya jalb qilingan, raqamli sug‘urta platformalari keng tarqalgan;

- Buyuk Britaniya – “Open Insurance” modelini joriy qilmoqda, u orqali sug‘urta kompaniyalari va regulyatorlar o‘rtasida real vaqtda ma’lumot almashinuvi ta’minlanadi;

- Germaniya va Fransiya – blokcheyn va AI asosida avtomatlashtirilgan shikoyat ko‘rib chiqish tizimlari faoliyat yuritmoqda [9].

3. O‘zbekistonda asosiy muammolar – texnologik tayyorgarlik va huquqiy me’yorlarning yetarli emasligi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda sug‘urta sohasining raqamlashtirilishiga to‘siq bo‘layotgan muammolar quyidagilardir:

- Sug‘urta kompaniyalarining IT infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan;

- Foydalanuvchilarning raqamli xizmatlardan foydalanish savodxonligi past darajada;

- Elektron polislar va onlayn xizmatlarni huquqiy jihatdan tan olish va tartibga solish mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan;

- Sug‘urta sohasida ma’lumot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha normativ baza kamchiliklarga ega.

4. Raqamlashtirish sug‘urta xizmatlarining ommaviyligini oshiradi.

Amaldagi raqamli xizmatlar ko‘lamini tahlil qilganda, quyidagi ijobiy natijalar aniqlangan:

- Xizmat ko‘rsatish muddati qisqargan;

- Sug‘urta polislarini sotish hajmi oshgan (ayniqsa avtomobil va sayohat sug‘urtasida);

- Masofaviy xizmatlar orqali mijozlar bazasi kengaymoqda;

- Mobil ilovalarning integratsiyasi mijozlar bilan o‘zaro aloqani soddalashtirgan;
- Yosh auditoriyaning sug‘urtaga bo‘lgan qiziqishi oshgan.

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi davrida aynan raqamli xizmatlar sug‘urta sohasida uzluksizlik va xavfsizlikni ta‘minlagani kuzatildi. Bu esa raqamlashtirishning nafaqat foydali, balki zaruriy strategik chora ekanligini isbotladi. Bu yondashuvlar sug‘urta sohasidagi xizmat ko‘rsatish jarayonlarining soddalashtirilishi, foydalanuvchilarning vaqt va xarajat jihatidan yengilliklar olishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, sun‘iy intellekt, blokcheyn, avtomatlashtirilgan sug‘urta baholash tizimlari, raqamli verifikatsiya va robotlashtirilgan xizmatlar ham bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda [10].

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta sohasining raqamlashtirilishi – milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlovchi, moliyaviy xizmatlarning sifatini oshiruvchi va aholi farovonligiga xizmat qiluvchi muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘tkazilgan tahlillar va xalqaro tajriba asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Xulosalar:

1. Sug‘urta bozorining raqamlashtirilishi O‘zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, biroq tizimdagi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi aksariyat hollarda individual kompaniyalar tashabbusi bilan cheklangan.
2. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat xizmatlar tezligi va sifati, balki butun sug‘urta ekotizimining ochiqqligi, shaffofligi va samaradorligini oshiradi.
3. O‘zbekistonda raqamli sug‘urta xizmatlarini joriy etishga to‘sqinlik qilayotgan omillar – bu IT infratuzilmaning cheklanganligi, normativ-huquqiy asoslarning yetarli emasligi va foydalanuvchilar orasida raqamli savodxonlikning pastligi bilan bog‘liq.
4. Raqamlashtirishning birinchi natijalari allaqachon ijobiy samara bermoqda: onlayn polislar soni oshmoqda, mijozlar bazasi kengaymoqda, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish ommalashmoqda.

Takliflar:

1. Sug‘urta sohasida yagona raqamli platforma yaratish — barcha kompaniyalar uchun umumiy elektron reyestr, mobil ilova va integratsiyalashgan portal shaklida.
2. Sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini modernizatsiya qilish, xususan elektron polislar, elektron arizalar va masofaviy shartnomalar huquqiy maqomini mustahkamlash.
3. InsurTech startaplar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularni sug‘urta xizmatlari bozoriga integratsiyalash uchun soliq imtiyozlari, grant dasturlarini joriy etish.

4. Sug'urta kompaniyalari uchun axborot xavfsizligi bo'yicha minimal standartlarni belgilash, bu orqali mijozlar ma'lumotlarining himoyasini qonuniy kafolatlash.

5. Fuqarolarning raqamli sug'urta xizmatlaridan foydalanish bo'yicha savodxonligini oshirish, shu maqsadda targ'ibot-tashviqot kampaniyalari va onlayn o'quv modullarini ishlab chiqish.

6. Raqamli sug'urta xizmatlarini davlat xizmatlari portali – my.gov.uz bilan integratsiyalash, bu orqali aholiga yagona platforma orqali qulay va tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratish.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi nafaqat sug'urta sohasining raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi, balki O'zbekistonning moliyaviy sektorida zamonaviy va ishonchli sug'urta muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli sug'urta tizimi – bu faqat texnologik yangilik emas, balki iqtisodiy barqarorlikning yangi asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. McKinsey & Company. (2020). *Insurance 2030: The impact of AI on the future of insurance*. <https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/insurance-2030>

2. Shavkat Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnoma, 25-yanvar 2020. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>

3. Sharapova, M. (2022). *Science and Education* jurnalida. ISSN 2181-0842.

4. Kafolat sug'urta kompaniyasi veb-sayti: <https://www.kafolat.uz>

5. O'zbekinvest va insurance.uz loyihasi: <https://www.uzbekinvest.uz>

6. Willis Towers Watson. (2019). *InsurTech Briefing Q2 2019*. <https://www.wtwco.com>

7. PwC. (2020). *Insurance 2025 and Beyond*. <https://www.pwc.com/gx/en/industries/financial-services/publications/insurance-2025-and-beyond.html>

8. Deloitte. (2021). *The future of insurance: Reimagining risk*. <https://www2.deloitte.com>

9. Pravda Vostoka. (2020). *Raqamli iqtisodiyot: Taraqqiyot sari qisqa yo'l*, 17-sentyabr. <https://pv.uz>

10. Malikova Shoira Baxtiyorovna. "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati". "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari va hududlarni mutanosib rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-may 2024-yil, 164-bet.